IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ABDURAHMON JOMIYNING XAMSACHILIK AN'ANASIDA TUTGAN O'RNI

Ziyoidinova Durdona

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada Jomiy "Xamsa" yozganligi bir qator fikr va dalillar asosida ochib beriladi. "Haft avrang"ning besh dostoni qisqacha tahlilga tortiladi. "Layli va Majnun" shu tipdagi dostonlar bilan qiyoslash asnosida farqli o'rinlarga atroflicha to'xtalib o'tiladi.

Annotation

The article proves that Jami wrote "Xamsa" on the basis of a number of opinions and arguments. The five epics of "Haft Avrang" are briefly analyzed. In the comparison of "Layli and Majnun" with epics of this type, the differences are discussed in detail.

Аннотация

В статье показано, что Джами написал "Хамсу" на основе ряда мнений и свидетельств. Кратко анализируются пять эпосов "Хафт Авранг". В сравнении "Лейли и Меджнун" с эпосами этого типа затрагиваются

Kalit so'zlar

Xamsa, Haft avrang, Tuhfat ul-ahror, Subhat ul-abror, Xusrav va Shirin, Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun, Iskandar Xiradnomasi.

Adabiyotshunoslarni davrlar osha qiynab kelgan va haligacha aniq bir to'xtamga kelinmagan savollar talaygina. Ulardan bir qanchasi, shubhasiz, xamsanavislarga borib taqaladi. "Xamsa"ga mukammal tartib bergan ijodkorlar qatoriga Abdurahmon Jomiyni kiritishimiz to'g'rimi ? Jomiy "Xamsa" yozganmi? Ko'ndalang qo'yilgan bu savollarga olimlarimiz tomonidan bir-birini inkor etuvchi javoblar taqdim etilgan. Bunday ikkilanishlarga asosiy sabablar : "Haft avrang" xamsa qolipida emasligi va uning zamondoshi, shu bilan birgalikda, shogirdi Alisher Navoiy o'z asrlarining salaflariga bag'ishlangan boblarida Jomiyni xamsanavis deb aniq ta'kidlab o'tmaganidir. Bu haqida Muhammadjon Imomnazarov:"…Hayrat ul-abror» muqaddimasida «Maxzan ul-asror» va «Matla' ul-anvor» bilan bir qatorda «Tuhfat ul-ahror»ni ham tilga olib o'tsa-da(XIII bob), «Xamsa»ning ikkinchi dostoni — «Farhod va Shirin»dagi Jomiyga bag'ishlangan VII bobda uni juda ko'tarinki ruhda madh etganligiga qaramay, biror asarini aniq tilga olmaydi. «Layli va Majnun» debochasida esa: Gar «Xamsa»ni etmay(in) murattab... (ya'ni, «garchi «Xamsa» yozmagan bo'lsang-da») deb qayd etadi…"

Yana bir boshqa adabiyotshunoslar Jomiyning asari "Xamsa" ekanligini quyidagi misollar orqali isbotlashga harakat qiladilar :
Bio Chomiy, ey umrho burda ranj
Zi xotir berun doda in panj ganj (Xiradnomayi Iskandariy")

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Ma’nosi : Kel, ey Jomiy, umring davomida ozor chekib xotirangdan bu “Panj ganj”(Besh xazina)ni yaratding.

”Jomiyning o‘zi “Xiradnomai Iskandariy” xotimasida o‘z asarini “Panj ganj” deb ataganligi uchun Jomiyni “Xamsa” yaratgan ijodkorlar qatoriga kiritish to‘g ‘riroq bo‘ladi”

Jomiy o‘z asarini beshlik vazniga kirmaydigan, oldinroq yozilgan ikki dostoni : “Solomon va Absol”, “Silsilat uz-zahab” ni ham bir asarga jamlab “Haft avrang”(yetti taxt) deb nomlaydi. Shakl va mazmun jihatdan ijodkor o‘z asarini beshlik tartibi bo‘yicha shakllantirishga harakat qilgan. Qolaversa, Jomiy Navoiy bilan zamondosh bo‘lib bir vaqtning o‘zida asar yaratadilar, shu sababli Navoiy asarlari debochasida ustozini aynan xamsanavis deb ta’kidlamagan.

An’anaga muvofiq dastlabki “Tuhfat-ul Ahror”ni falsafiy-axloqiy masalalarga bag’ishlaydi. “Maxzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Hayrat ul abror” – dostonlardagi ohangdoshlik, kompazitsion o‘xshashlikdan bilish mumkinki, Jomiy uni “Xamsa” talablari asosida yozgan.

Keyingi asar tartib bo‘yicha ”Xusrav va Shirin” muhabbati talqiniga asoslangan bo‘lishi kerak edi. Lekin Jomiy o‘z shaxsiyatidan kelib chiqqan holda ishqiy mavzulardan biroz chekinadi va an’anaga burilish yasab yana bir falsafiy asar – “Subhat ul-abror”ga qo‘l uradi. Asar kompozitsiyasi ham ungacha shunday xarakterda yaratilgan asarlardan farq qiladi. U bo‘limlardan emas 40 ta iqd(tasbeh donasi)dan tashkil topgan. Har bir iqd nazariy bilimlar, hikoyat va yakundan iborat.

Ijodkor beshligidagi uchinchi dostonni “Yusuf va Zulayho”ga o‘zidan oldingi xamsanavislar qo‘l urmagan qissaga bag’ishlaydi. “Ahsan ul-qissas” (qissalarning eng go‘zali) deya ta’riflangan bu qissa Qu’ronda “Yusuf” surasi bitta qissani avvaldan oxirgacha, boshqa hikoyalar aralashtirmay hikoya qilingan yagona qissadir”. Qissaga Jomiydan oldin Rabg’uziy va Durbeklar murojaat qilishgan. Jomiy o‘z dostonini Ilohiy kitobda qanday nozil bo‘lgan bo‘lsa, xuddi shunday ketma-ketlik asosida syujet ipiga chizib chiqadi. Asar qahramoni Yusuf poklik va ma’sumiyat ramzidir. Shoir doston so‘nggida Yusuf timsolidan murod - Mir Alisher Navoiy ekanligini ta’miya (muammo san’ati) usulida qayd qilib o‘tadi.

”Xamsa”ning qolgan ikki asari: “Layli va Majnun”, “ Xiradnomai Iskandariy” an’anaviy nom va kompozitsiya asosida shakllantirilgan.

Nizomiy Ganjaviy “Iskandarnoma” si tarkibidagi “Iqbolnoma”da alohida “Xiradnomayi Aflotun”, “Xiradnomayi Suqrot”, “Xiradnomayi Arastu”ga bag’ishlangan boblar mavjud bo‘lib, Jomiy aynan shu asarlar nomiga tatabbu’ tarzida beshinchi asarini “Xiradnomayi Iskandar” deb nomlaydi.

Arab xalqlarining shu nomdagi rivoyati asos qilib olingan xamsanavislar an'anasidagi 4-doston "Layli va Majnun"dir. Jomiy va Navoiy asarlarini bir vaqtda yozib tugallaydilar. Bir xil nomdagi bu ikki asar bir- biridan kompozitsion jihatdan sezilarli darajada katta farq qilmasa-da, obrazlar kesimi, ifodalangan tasavvufiy bo'yoqlarda bir qator noo'xshashliklar mavjud. Navoiyning tartib bo‘yicha yozilgan besh dostoni "Xamsa" an'anasining har tomonlama mukammal davomchisi, Jomiy asarida esa "doimiylik"dan chetlashgan o‘rinlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, Qays oilada o‘nta farzandning kenjasi bo'lib tasvirlanadi. Navoiy va undan oldingi shoirlar asarida esa tilab olingan yagona farzand.

Jomiy asarning dastabki boblarida Qaysni sofdil, oqko‘ngil, ta’sirga tez beriluvchan yigit sifatida tasvirlaydi. U go‘zal qizlarni yoqtirar, ularni izlab qabilama-qabila kezib yurardi. Shunday qabilarning birida Karima ismli qiz bo‘lib, yigit unga ko‘ngil qo‘ygani, qizning qalbida boshqasi borligini sezgan Qays uni tark etgani bayon etilgan. Shu xildagi asarlarda esa Layli Qaysning

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

birinchi muhabati o‘laroq ifodalangan. ”Abdurahmon Jomiy ijodining tub mohiyati inson va insoniylikni kuylashdan iborat. Shoir insonni baland tutar, uning yuksak va oliyjanob, mavqeyini hamisha zo‘r ilhom bilan ta’kidlar edi. Insonni ulug’lovchi uning ruhiy dunyosini boyituvchi, insonni uning oliy martabasiga munosib etuvchi omillardan biri sevgi va vafodorlik tuyg’ularidir” – deydi Aziz Qayumov. Qays xarakteridagi asosiy o‘zgarishlar Laylini uchratganidan keyingina sodir bo‘ldi. U Laylini ko‘riboq ko‘ngil berdi. Endi u chin muhabbat egasiga aylandi.

Jomiy asarni boyitishda faqat inson obrazlari bilan cheklanib qolmaydi. Layliga oshiqayotgan Majnun tuyani bo‘talog’idan ayrib safarga otlanadi. Aynan shu o‘rinda Majnunning sevgisi onaning farzandiga bo‘lgan muhabbati bilan qiyoslanadi.

Bu muhabbatga qarshi bo‘lgan Laylining otasi Qaysni qiziga yaqin yo‘lmaslikni ogohlantiradi. Mahbubasidan ayro yashay olmagan Majnun o‘sha qabiladagi beva ayolnikida yashay boshlashi, uni qizning otasi bilib qolishi yoki Qussayir ismli shoir xalfaga Majnun haqida hikoyat aytgan sahnalari boshqa dostonnavislarning asarlarida keltirilmagan. Xalq dostonlarini badiiy jihatdan boyitib turuvchi asosiy san'atlardan biri mubolag'a hisoblanadi. Jomiyning "Layli va Majnun"ida uning haddi a’losini uchratish mumkin:

...Daraxtdek turardi bir joyda noxush
Unga uchib kelib qo‘ni necha qush…
Oradan bir qancha vaqt o‘tib ketdi
Bir qush boshi uzra oshyon etdi…

Ya'ni oshiq mashuqasini qaytganida shu yo‘ldan o‘tishini bilgan holda uzoq muddat bir joyda qimir etmay kutadi. Layli qaytib kelganida qushlar Majnunga uy solib, uni tanib bo‘lmas holatga keltirishgandi.Bu payt Majnun ishqqa shu qadar berilib ketgan ediki, endi uni na vaqt, na makon qiziqtira olardi.

Xulosa o‘rnida, dostonlarning shakl va mazmunidagi(siyosiy mavzular aralashmagan, ko‘proq irfoniy) ayrim ”qolipdan chetlashgan” holatlari uchun Jomiyni ”Xamsa” yozmagan deyishlik noto‘g‘ri bo‘ladi. Keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, ijodkor beshlik yozish uchun to‘rt yil vaqt sarflagan(1481-1485). Navoiy asarini ustozidan keyin boshlab, undan oldin tugatgan. Bunga ularning yoshi o‘rtasidagi tafovut ta’sir qilgan, albatta.

“Layli va Majnun” shu ruhda yozilgan dostonlar ichida, asosan, ilohiy ishqqa va insonni ulug‘lashga urg‘u berilganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.Jomiy. Layli va Majnun. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.1989
2. Aziz Qayumov. Nazm va tafakkur quyoshi.Toshkent “Fan” nashriyati.1992
3. D.Yusupova, Sh.Sirojiddinov, Navoiyshunoslik.(1-kitob) – Toshkent: Tamddun 2019. 70-sahifa
4. Muhammadjon Imomnazarov. Jomiy “Xamsa” yozganmi?. 2005
5. 5.Nizomova Shahlo. Qur’oni Karimda Yusuf alayhissalom qissasi. 2022.
6. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. Modern Science and Research, 2(6), 1104-1106.
7. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. IQRO , 2 (2), 777-785.
8. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. Modern Science and Research, 2(6), 848-853.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

9. Baxtiyorjon o‘g‘li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41
10. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-132
11. СЕМИОТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В ЛИРИКЕ АНВАРА ОБИДЖАНА
12. Qahhor Yo'lchiyev - Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. – С383-387. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
13. LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR.Q Yo'lchiyev - Scientific journal of the Fergana State University, 2022. № 2

WORDLY
KNOWLEDGE